




1. Oddiy barglarga misol bo`ladi.
2. Barg yaprog`ining uzunligi 1 metrgacha yetadi.
3. Barg bandining uzunligi 20 sm bo`ladi.
4. Barglari orasida tilcha bo`ladi.
5. Baglari panjasimon tomirlangan.
6. Baglari parallel tomirlangan.
7. Barglari bandsiz.
8. Poyaga bargalari xalqasimon joylashgan.
9. Barglari toq patsimon.
10. Barglari bir yillik vegetatsiya davriga ega.

4. Quyidagi keys savolining yechimini toping. (Botanika, matematika va mantiqiy fikrlashga oid topshiriq).



Bilib oling! Barglarning suv bug`latishi - transpiratsiya deyiladi. Suv bug`lanishi tufayli ildiz orqali suv va mineral tuzlarning so`rilishi tezlashadi. Bu moddalar poya bo`ylab harakat qiladi. Suv bug`latish o`simlik organlarini qizib ketishdan saqlaydi. Suv barglardagi og`izchalar orqali bug`lanib chiqadi. Issiq va quruq sharoitda o`sadigan o`simliklar suvni nisbatan kam bug`latadi. Barg po`stida loviyasimon 1 juft

hujayralar 1 ta barg og`izchasini hosil qiladi. Masalan bitta bargda 100 ta loviyasimon hujayralar bo`lsa, ushbu bargda og`izchalar soni 50 ta bo`ladi. Barg og`izchalar - *ustitsalar* deb ham ataladi.

Topshiriq.

Flora maydonida uchta o`simlikda barg transpiratsiyasi kuzatildi. Laboratoriyada ularning barg po`sti hujayralari o`rganilib barglarda jami 27552 ta loviyasimon hujayralar joylashganligi aniqlandi. O`rganish jarayonida uchinchi o`simlik barg og`izchalar soni birinchi o`simlik barg og`izchalar sonidan 1,8 marta ko`pligi va ikkinchi o`simlikniki birinchi o`simlik barg og`izchalaridan 0,5 marta

kamligi aniqlangan bo`lsa, ikkinchi va uchinchi o`simlikdagi jami barg og`izchalar sonini aniqlang.

5. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Barg o`simlikda qanday vazifalarni amalga oshiradi?
2. Barg nima sababdan yassi tuzulgan? Uning kattaligi qanday bo`ladi?
3. Barglarning turlicha ko`rinishlarda bo`lishiga nimalar sabab bo`ladi?
4. Bargdagi tomirlanishlarning shakllari qanday?
5. Barg mezofilida qanday to`qimalar mavjud, ularning vazifalari nimalardan iborat?
6. Barg mezofilida ustunsimon to`qimaning ko`p hajmda bo`lishini sababi nimada?
7. Darsoventrol, izolateriol barglar o`zoro qanday farqlanadi?
8. Bargning shakl o`zgarishlarini aytib bering?

6. Quyidagi jadvalni to`ldiring.

Taqqoslanadigan jihatlari	Olma bargi	Na`matak bargi
Oddiy barg		
Murakkab barg		
Qo`shimcha barglar		
Parallel tomirlanish		
Panjasimon tomirlanish		
Bargda tilcha mavjudligi		
Fotosintez xloroplastda sodir bo`ladi		
Barglarida suv bug`latish hodisasi mavjud		
Yon bargchalarning mavjudligi		